



UDK: 821.531

Timur KADIROV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: rameo_113@mail.ru

PhD, dotsent M. Oblokulova taqrizi asosida

SHARQ ADABIY AN'ANALARI KONTEKSTIDA O'ZBEK VA KOREYS ADABIY ALOQALARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston va Koreya adabiy aloqalarining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy davrdagi xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki mamlakat yozuvchilari va tarjimonlarining ijodiy hamkorligi, madaniy almashinuv jarayonlari va zamonaviy kommunikatsion imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tarixiy ildizlar XVI-XX asrlarda shakllangan bo'lsa, XXI asrda yangi davr aloqalari ilmiy, madaniy va adabiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Koreya adabiy aloqalari, tarjima, madaniy almashinuv, tarixiy ildiz, zamonaviy davr, adabiy hamkorlik.

УЗБЕКСКО-КОРЕЙСКИЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ СВЯЗИ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ТРАДИЦИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются исторические корни, этапы развития и особенности современного периода литературных связей между Узбекистаном и Кореей. В исследовании рассматриваются творческое сотрудничество писателей и переводчиков двух стран, процессы культурного обмена, а также современные коммуникационные возможности. Результаты показывают, что исторические основы сформировались в XVI–XX веках, а в XXI веке литературные связи вступили в новый этап, выведя научное, культурное и литературное сотрудничество на более высокий уровень.

Ключевые слова: Узбекско-корейские литературные связи, перевод, культурный обмен, исторические корни, современный период, литературное сотрудничество.

UZBEK–KOREAN LITERARY RELATIONS IN THE CONTEXT OF EASTERN LITERARY TRADITIONS

Annotation

This article analyzes the historical roots, stages of development, and characteristics of the contemporary period of literary relations between Uzbekistan and Korea. The study examines the creative cooperation of writers and translators from both countries, processes of cultural exchange, and modern communication opportunities. The findings indicate that the historical foundations were formed between the 16th and 20th centuries, while in the 21st century these relations entered a new stage, elevating scholarly, cultural, and literary cooperation to a higher level.

Key words: Uzbek–Korean literary relations, translation, cultural exchange, historical roots, contemporary period, literary cooperation.

Kirish. Adabiyot xalqlar orasidagi eng jonli va doimiy aloqalardan biridir. Har bir asar – nafaqat bir yozuvchining ichki dunyosi, balki uning jamiyat bilan mulqotining aksidir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va Koreya adabiy aloqalari nafaqat tarixiy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham qiziqish uyg'otadi. O'zbekiston va Koreya xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalar tarixiy kontekstda shakllangan bo'lib, u asrlar davomida turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan boyitilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilni «O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi o'zaro almashinuvlar yili» deb e'lon qilishni taklif qildilar. So'nggi 5 yil ichida barcha sohalar qatori ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining amaliy natijalarini kutmoqda. Bu sharqshunos-koreyashunos olimlar zimmasiga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi [1].

2021-yilning 28-yanvar sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Janubiy Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Che Inlar videonajuman shaklida uchrashuv o'tkazishdi [1]. Anjumanda O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi ko'p asrlilik do'stlik va strategik sheriklik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash haqidagi dolzarb

masalalar o'rin oldi. Darhaqiqat, O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi iliq munosabatlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq o'rnatilgan edi. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Koreya davlati bilan ilm-fan, texnika sohasida iqtisodiy-ijtimoiy mustahkam aloqalarni yo'lga qo'ydi [2]. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil 13-iyunda Koreya Respublikasiga uyushtirgan safarlarida Janubiy Koreyaning mashhur «Ton A Ilbo» gazetasiga bergan intervyulari bunga yaqqol misol bo'ladi:

«Haqiqatdan ham O'zbekiston ko'p millatli davlat. Mening fikrimcha, uning boyligi va o'ziga xosligi ham shunda. Har bir millat rivojlanayotgan O'zbekistonga o'zining moddiy va ma'naviy madaniyatini joylashtirgan va O'zbekistonni o'z vatani deb hisoblaydi. Koreys millatiga mansub O'zbekiston fuqarolari ham shular jumlasidandir.

Biz 1937-yilda koreys millatining boshiga tushgan mudhish voqeani eslaymiz. O'zbekiston qiyinchiliklarga qaramay, o'ng minglab Uzoq Sharqdan kelganlarni, keyinchalik nemislarni, qrim-tatarlarni, turklarni va boshqa Ukraina, Belorussiya, Rossiyadan kelgan qochoqlarni ochiqko'ngillik bilan qarshi oldi. O'zbekistonning rivojiga hissa qo'shgan koreyslar haqida ham bilamiz. Bilamiz va

shunga yarasha javob qaytaramiz. Toshkentning to'rt ko'chasi mashhur koreyslar nomi bilan nomlanganligi so'zinning isbotidir.» [1]

Ana shu ko'chalarning biri mashhur zamonaviy koreys shoiri Cho Myonxi nomi bilan ataladi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy nomidagi muzeyda shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan burchak tashkil etilgan. Bu o'zbek va koreys millatlari o'rtasidagi do'stona munosabatlar va madaniy aloqalar keng qamrovliligining yorqin dalilidir [1]. 1992-yili O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi madaniy aloqalar o'zining qizg'in pallasiga kirdi. Mazkur yili O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Farmonlariga ko'ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da Koreys filologiyasi kafedrasiga asos solindi hamda ilk bora koreys tili o'qitila boshlandi [2]. Dastlabki yillarda koreys tilini o'qitishda Kim Mun Uk janoblari jonbozlik ko'rsatdilar. Kafedrada xorijdan kelgan professor-o'qituvchilar, xususan, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti volontyor o'qituvchilari faoliyat yuritishdi hamda O'zbekistonda koreys tili o'qitilishi keng yo'lga qo'yildi [2].

1997-yildan boshlab kafedra koreys tili va adabiyoti, Koreya iqtisodi bo'yicha o'z mutaxassislariga ega O'zbekiston aloqalarini mustahkamlashga kirishdi. 1999-yili ilk bor barcha qulayliklarga ega lingofon xonasi tashkil etildi. 2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti tomonidan barcha o'quv xonalari yangi ta'mirdan chiqarildi, zamonaviy texnika bilan jihozlandi.

2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti homiyligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da elektron kutubxona tashkil etildi. Shu bilan birga, 2018 yili tashkil etilgan Koreyashunoslik fakulteti qoshida ham kutubxonaga asos solindi [1]. Bugungi kunda kutubxonada fondida 10000 dan ortiq koreys tili, koreys tilini o'qitish metodikasi, koreys tili bo'yicha test sinovlari, koreys adabiyoti, tarixi, madaniyati, iqtisodiga oid o'quv qo'llanma va darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar ham mavjud [3].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Kutubxonada fondi har yili Koreya Respublikasining qator tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari tomonidan doimiy tarzda yetkazib berilayotgan o'quv adabiyotlari bilan boyitilmoqda. Fan-texnika sohasidagi rivojlantirishga qaratilgan ishlar jadal sur'atlar bilan olib borildi. Buning mahsuli o'laroq, 2015-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti volontyor-o'qituvchilari bilan hammualliflikda [4] «Koreys tilini birgalikda o'rganamiz» media darsligi yaratilgan bo'lsa, shu yilning o'zida koreys kitobxonlarini o'zbek adabiyotining nodir asarlari, buyuk shoir va yozuvchilari bilan tanishtirish ishlari ham yo'lga qo'yildi. Jumladan, shoir Zulfiyaning [1] 100 yilligiga bag'ishlab «Zulfiya she'riyati» koreys tilida chop etildi. Abdulla Qahhorning 10dan ortiq [1] hikoyalari koreys kitobxonlari e'tiboriga etkazildi. Bugungi kunda Muhammad Yusufning vatan haqidagi she'rlari nashr qilinish arafasida [5]. 2013-yili kafedra professor-o'qituvchilari hamda «This work was supported by the Academy of Korean Studies (Korean Studies Promotion Service) Grant funded by the Korean Government (Ministry of Education)» homiyligida «Klassik koreys she'riyati antologiyasi», «Klassik koreys nasri antologiyasi», 2014-yili esa «Zamonaviy koreys nasri antologiyasi», «Zamonaviy koreys she'riyati antologiyasi» kabi kitoblar o'zbek kitobxonlari javonlarini to'ldirdi [6].

2015-yili «Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar» kitobi nashr etildi. Quvonarli jihati shundaki, mazkur to'plam Mahkamova Yulduz, Muhamedaliyeva Madina, Nosirova Shahnoza, Amanova Nodira, Hojiyeva Madinaxon, Jo'rayeva

Malika, Shermatova Barno kabi iqtidorli talabalar mehnati mahsulidir.

Oliy ta'lim muassasalari kafedrlarida o'qitiladigan fanlar kesimida qator o'quv qo'llanma va darsliklar yaratildi. Ular qatoriga U.T.Saydazimovning «Koreys adabiyoti» (2018), «Mutaxassislikning nazariy masalalari» (2020), «Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili» (2020), «Koreys adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida» (2021), U.T. Saydazimova, B.A. Mirsharipova, G.A. Yusupovalarning «Koreys tili leksikologiyasi» (2021), N.D. Kimning «Введение в корейскую филологию» (2019), «Диалектология корейского языка» (2020), «Языковая ситуация в Корее» (2021); T.S. Kimning: «Стилистика корейского языка» (2021); G.D. Yunusovning «Koreys tili amaliy fonetikasi» (2021) kabi darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etildi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan media darslik va elektron qo'llanmalar ham tayyorlandi. U.T. Saydazimova, V.N. Kim, Kim Byon Il, A.T. Hidoyatova, D.Sh. Dadabayevaning «Uch podsholik va Silla davri nasri» (2020); U. T. Saydazimova, B.A. Mirsharipova, G.A. Yusupova, Jo Min Yongning «Koreys frazeologizmlarining milliy-madaniy xususiyatlari» (2021); U.T. Saydazimova, A.T. Hidoyatova, D.Sh. Dadabayevaning «Uch podsholik va Silla davri nazmi» (2022) kabi darslik va o'quv qo'llanmalari shular jumlasidandir.

Muhokama va natijalar. O'quv jarayonini rivojlantirish, o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish bilan birga, ilmiy sohada ham siljishlar ko'zga tashlanadi. Bir qator tadqiqotchilar koreys tilining turli aspektlari, muammolari, koreys va o'zbek tillarining qiyosiy jihatlari borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Kim Natalya Dekxenovning «Грамматическая и функционально-семантическая природа главных членов предложения в корейском языке» (2016), Kim Olga Anatolyevnaning «Грамматические особенности падежных частиц корейского языка» (2010), Pan Larisa Antonovnaning «Концептуализация этического норматива в корейской картине мира (на материале пословичных изречений с лексемой 밥 - пап)» (2011), Kim Tatyana Sergeevnaning «Семантика противоположности и способам ее передачи в корейском языке» (2018), Yunusova Gulshoda Dilshadovnaning «Zamonaviy koreys tilida ko'makchi fe'llarning semantik-funksional xususiyatlari» (2020) mavzularida fan nomzodi bo'yicha tadqiqot ishlari himoya qilishgan bo'lsa, Kim Natalya Dekxenovna «Типы предложений по коммуникативной целенаправленности в современном корейском языке» (2018) mavzusida filologiya fanlari doktori tadqiqot ishlari muvaffaqiyatli himoya qildilar. O'zbekistonning Janubiy Koreya Respublikasi bilan tuzilgan do'stlik shartnomasi, koreys millatiga, tiliga, urf-odatlariga, madaniyatiga, san'atiga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Nafaqat yuqorida sanab o'tilgan sohalarda, balki koreys adabiyoti, tarixiga ham qiziqish kuchaydi va shu bilan birga o'rganish imkoniyatlari yaratildi. Lingvistik tadqiqotlar bilan birgalikda adabiyotshunoslik sohasida ham tadqiqot ishlari amalga oshirildi. 2011-yili Saydazimova Umida Turaxanovna tomonidan «Xon Kil Don haqida qissa» – o'rta asr koreys nasri namunasi» (epik motivlar, ertak elementlari va tipologiya masalalari) mavzuida fan nomzodi, 2018-yili esa «XVII–XVIII asrlar koreys nasrining ma'naviy-estetik konsepsiyalari» mavzuida filologiya fanlari doktori tadqiqot ishi muvaffaqiyatli himoya qilindi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotchilar Ashirbayeva Dilorom Ravshanovna «Koreys va o'zbek diskursida murojaat birliklarining qiyosiy tadqiqi» mavzusidagi, Yusupova Gulchehra Alisherovna «Koreys va o'zbek nutqiy etiketlarining sotsiolingvistik tadqiqi»

mavzusidagi, Murodova Durdon Bahodir qizi «XX asr koreys nasrida millat muammosining badiiy talqini» mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishini olib bormoqdalar. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Koreya Respublikasining nufuzli oliy ta’lim muassasalari, fondlari hamkorligi doirasida O‘zbekistonda Koreyashunoslikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim va madaniy aloqalar sohasida qator xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazildi. 2008-yili «Корееведение и сотрудничество между университетами Центральной Азии и Кореи», 2011-yili «Узбекистан–Корея: историко-культурные и экономические взаимоотношения» kabi ilmiy-amaliy anjumanlar shular jumlasidandir. 2020-yili ilk bor «Yosh Koreyashunos: ilm va ijod ostonasida» talabalarining respublika forumi o‘tkazilgan bo‘lsa, 2021-yil mazkur mavzu ostida xalqaro talabalar forumi o‘tkazildi. Forumda O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurti talabalari, Koreya Respublikasida tahsil olayotgan O‘zbekistonlik va

boshqa xorijlik, jumladan, Xitoy Xalq Demokratik Respublikasi fuqarosi ishtirok etdi. Kafedraga asos solingan kundan boshlab Koreya Respublikasining O‘zbekistondagi turli tashkilotlari homiyligi ostida talabalar o‘rtasida avval universitet (sobiq institut), keyincha respublika va xalqaro miqyosda notiqlik san’ati tanlovi doimiy ravishda o‘tkazib kelinadi. 2020-yildan boshlab kafedra notiqlik san’ati tanlovini Koreyashunoslik sohasining jonkuyari, hurmatli ustoz Kim Muk U janoblari xotirasiga bag‘ishlab har yil 10-mart kuni 1-2-kurs talabalari o‘rtasida o‘tkazishni an’anaga aylantirishdi.

Xulosa. O‘zbekiston va Koreya adabiy aloqalari tarixiy ildizlardan zamonaviy davrgacha uzluksiz rivojlanmoqda. Tarixiy bosqichlarda diplomatik va madaniy aloqalar asos bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrda ilmiy, ijodiy va raqamli platformalar yordamida aloqalar yangi sifatga ko‘tarildi. Tarjima faoliyati va madaniy almashuv ikki xalq adabiyotini boyitib, kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. «Ton A Pbo» gazetasiga bergan intervyusi. №19 (388). 13-iyun 1992. Брутт Ким. Мучнистые росы корейского Ренессанса. – Т.2007
2. Park, J. Korean-Uzbek Literary Relations. Seoul: Minumsa, 2015.
3. Zokirov, S. “Tarjima va madaniy almashuv: O‘zbekiston va Koreya tajribasi”. O‘zbekiston adabiyoti, 2018, №4, 34-42.
4. Kim, H. Modern Korean Literature in Central Asia. Busan: Dong-A University Press, 2019.
5. Bakhtin, M. Problemy literaturnoy kommunikatsii. Moskva, 1986.
6. Koreyashunoslik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari. 2008, 2011, 2019, 2020, 2021-yillar.